


Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2020- yil yanvar-dekabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 35 593,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 104,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (97,9 %) ni tashkil etdi.



B– Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeks hisobida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 5,3 % ga, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash- 69,4 % ga pasayishi kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 5,7 % ga, elektr, gaz, bugʻ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 12,9 % ga o'sishi kuzatildi.


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 112,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi % da



Ishlab chiqaradigan sanoat



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34853,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,9 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 219 365 dona engil avtomobil ishlab chiqarilib (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,5 % ga o'sgan), 66 622,8 tonna kalava ip (7,3 %), 152 206,6 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (11,7 %), 14000,0 ming. litr 80% dan kam bo'lmagan etil spirti(5,4%), 574,5 tonna Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim, po'lat arqonlar, to'qilgan shnurlar va shu kabi buyumlar (54,9 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. 6 405,0 tonna yurgizuvchi g'ildiraklar, qismlari va ularni jihozlar (0,7 %) 151,4 tonna Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar va to'siqlar (1,6%) kamayish kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Engil avtomobillar



2018- y. 2019- y. 2020- y.

Yumshoq bug'doy va spelta uni




2018- y. 2019- y. 2020- y.

O'simlik yog'li (tozalangan)



2018- y. 2019- y. 2020- y.

Aroq



2018- y. 2019- y. 2020- y.

Uzum vinosi




2018- y. 2019- y. 2020- y.

Paxtadan yigirilgan ip




2018- y. 2019- y. 2020- y.

80% dan kam bo'lmagan etil spirti



2018- y. 2019- y. 2020- y.

Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim



2018- y. 2019- y. 2020- y.

Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar



2018- y. 2019- y. 2020- y.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Yengil avtomobillar, dona	212 001	219 365	7 364
Paxtadan yigirilgan ip, t.	62 077,3	66 622,8	4 545,5
Aroq, ming litr.	829,8	733,0	-96,8
Bug'doy va spelta uni, t.	136 273,0	152 206,6	16 859,5
Paxta tolasi, tonna.	30 892,0	46 507,0	15 615
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna.	12 851,5	8 888,1	-3 963,4

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yengil avtomobillar - 3,5 % ga oshdi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 79 908 dona "Cobalt" (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 142,2 %), 66 402 dona "Nexia T-250" (90,8 %), 50 052 dona "Lacetti-Gentra" (112,5 %), 23 003 dona "Spark" (94,9 %) avtomobillari ishlab chiqarildi.

Andijon viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, dona




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 533,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (1,5 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,9 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt/s	438,1	254,3	-183,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	91,7	76,8	-14,9
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm.	318,1	354,7	36,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 41,9 %, Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish 16,2 % pasaydi hamda elektr energiya uzatish bo'yicha xizmatlar 11,5 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 93,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	32,2	42,0	9,8
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	11,1	8,8	-2,3
To'qimachilik chiqindilari, t	852	1024	172

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 30,4 %, hamda to'qimachilik chiqindilari 20,2 % ga oshganligi kuzatildi, shuningdek, oqava suvlarni shlami berish bo'yicha xizmatlar – 20,4 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 26611,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan - 0,4 % ga kamaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 74,8 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2019- yil yanvar-dekabr oylarida 0,1 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumaniga to'g'ri kelib, 75,7 % ni, shuningdek, Andijon shahar 5,3 % ni, Xo'jaobod tumani 2,6 % ni, Andijon tumanida 2,2 % ni hamda Oltinko'l tumani 2,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (99,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Izboskan (176,5 %), Xo'jaobod (135,5 %), Ulug'nor (131,8 %), Oltinko'l (124,9 %), Qo'rg'ontepa (104,1 %), Bo'ston (108,7 %), tumanlarida hamda Andijon shahrida (111,2 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab

chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida

	Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1 416,6	5,3	111,2		139,1	0,5	148,8
Andijon shahar				Xonobod shahar			
	Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	594,9	2,2	106,8		20 145,0	75,7	95,4
Andijon				Asaka			
	Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	271,2	1,0	106,7		283,6	1,1	110,4
Baliqchi				Buloqboshi			
	Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	173,9	0,7	108,7		329,9	1,2	103,2
Bo'ston				Jalaquduq			
	Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	473,5	1,8	176,5		138,1	0,5	131,8
Izboskan				Ulug'nor			
	Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	254,5	1,0	103,9		524,1	2,0	124,9
Marhamat				Oltinko'l			
	Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	301,0	1,1	107,1		684,8	2,6	135,5
Paxtaobod				Xo'jaobod			
	Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	507,8	1,9	102,4		373,1	1,4	104,1
Shahrixon				Qo'rg'ontepa			

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5 753,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 16,2 % ni tashkil etdi.


Andijon viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida

	Mlrd. so'm		Ulushi % da	O'sishi % da			
	35 593,3		100,0	104,6			
	Andijon viloyati *						
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	5721,1	16,1	111,5		1 222,5	3,4	102,0
	Andijon shahar				Xonobod shahar		
	Mlrd. cym	Ulushi % da	O'sish sur'ati		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	934,8	2,6	101,8		20 719,6	58,2	95,9
	Andijon				Asaka		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	754,2	2,1	102,0		304,0	0,9	104,3
	Baliqchi				Buloqboshi		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	308,9	0,9	105,5		683,8	1,9	109,8
	Bo'ston				Jalaquduq		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	738,0	2,1	146,7		240,7	0,7	102,8
	Izboskan				Ulug'nor		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	426,8	1,2	110,5		626,5	1,8	114,7
	Marhamat				Oltinko'l		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	510,2	1,4	110,7		800,0	2,2	110,6
	Paxtaobod				Xo'jaobod		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	756,9	2,1	100,9		845,3	2,4	103,6
	Shahrixon				Qo'rg'ontepa		

* shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

Andijon viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishini, Asaka (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 95,9 %), sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Izboskan (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 146,7 %), Oltinko'l (114,7 %), Xo'jaobod (110,6 %), Qo'rg'ontepa (103,6 %), Jalaquduq (109,8 %), Paxtaobod (110,7 %), Marhamat (110,5 %), Xonobod (102,0 %), va Bo'ston (105,5 %) tumanlarida, hamda Andijon shahrida (111,5 %) sezilarli darajada oshdi.

Andijon viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Asaka tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 58,2 % i) hamda Andijon shahrida (16,1 %), Xonobod shahar (3,4 %), Andijon (2,6 %), Qo'rg'ontepa (2,4 %) va Xo'jaobod (2,2 %) tuman va shaharlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Buloqboshi (0,9 %), Bo'ston (0,9 %) hamda Ulug'nor (0,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka (62 939,3 ming so'm), Xonobod shahar (28 562,2 ming so'm) va Andijon shahrida (12 833,3 ming so'm) tuman va shaharlarda o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (11 271,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 8 426,8 ming so'm bo'lgan holda, Asaka tumanida – 61 139,9 ming so'mni, Xo'jaobod tumanida – 6 192,1 ming so'mni, Andijon shahrida – 3 177,7 ming so'mni, Xonobod shahrida 3 249,5 ming so'mni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, ming so'm

	Sanoat mahsulotlari		Iste'mol mahsulotlari		
	11 271,2		8 426,8		
	Andijon viloyati				
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	12 833,3	3 177,7		28 562,2	3 249,5
	Andijon sh.			Xonobod sh.	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 534,4	2 249,3		62 939,3	61 193,9
	Andijon			Asaka	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 748,6	1 347,7		2 122,8	1 980,4
	Baliqchi			Buloqboshi	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	4 267,0	2 402,4		3 668,4	1 769,9
	Bo'ston			Jalaquduq	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 090,3	1 982,9		4 018,0	2 304,5
	Izboskan			Ulug'nor	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 458,4	1465,9		3 507,8	2 934,7
	Marhamat			Oltinko'l	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 635,3	1 554,7		7 233,6	6 192,1
	Paxtaobod			Xo'jaobod	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 517,1	1 688,8		3 902,7	1 722,4
	Shahrixon			Qo'rg'ontepa	

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 134,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 20,0 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Shahrixon (80,5 %), Jalaquduq (78,9 %), Izboskan (72,9 %), hamda Andijon (73,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Asaka tumani (2,4 %), Xonobod shahar (14,6 %) va Andijon shaharida (23,4 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)



Bugungi kunda viloyatda 8342 dona sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 3076 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 36,9 % i) Andijon shahriga, 896 tasi (10,7 %) Asaka tumaniga, 567 tasi (6,8 %) Andijon tumaniga, 611 tasi (7,3 %) Shahrixon tumaniga, 452 tasi (5,4 %) Xo'jaobod tumaniga, 401 tasi (4,8 %) Oltinko'l tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda		Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda
42	Ulug'nor	93
39	Xonobod sh	150
103	Bo'ston	176
114	Paxtaobod	227
82	Marhamat	245
94	Buloqboshi	249
102	Baliqchi	278
129	Jalaquduq	289
93	Izboskan	290
121	Qo'rg'ontepa	342
119	Oltinko'l	401
153	Xo'jaobod	452
157	Andijon	567
170	Shahrixon	611
176	Asaka	896
757	Andijon sh	3076

2020- yilning yanvar - dekabr oyida viloyatda 2 451 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 757 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 30,9 %) Andijon shahrida, 176 tasi (7,2 %) Asaka tumanida, 170 tasi (6,7 %) Shahrixon tumanida, 153 tasi (6,1 %) Xo'jaobod tumanida, 157 tasi (6,2 %) Andijon tumanida tashkil etildi.

Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari 2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligida Asaka (896ta), Andijon (567 ta), Shahrixon (611 ta), Xo'jaobod (452 ta), Oltinko'l (401 ta), Qo'rg'ontepa (342 ta) va Izboskan tumanlarida (290 ta) hamda Andijon shaharida (3 076 ta) qayd etildi.



2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligiga esa Jalaquduq (289 ta), Baliqchi (278 ta), Buloqboshi (249 ta), Marhamat (245 ta), Paxtaobod (227 ta), Bo'ston (176 ta) va Ulug'nor tumanlarida (93 ta) hamda Xonobod shahrida (150 ta) faoliyat yurgizayotgan korxonalar qayd etildi.

Sanoat statistikasi
bo'limi
Tel.: (74) 228-30-42